



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№7  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 418 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Umarova H. O'.** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G' B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F.O.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – doctor of philosophy (PhD) in psychology

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari .....	16
<b>Doniyorov Salim Musurmonovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
<b>Nazarov Odil Omanqulovich</b>	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	27
<b>Abirova Umida Nazarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati.....	30
<b>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</b>	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	34
<b>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati .....	38
<b>Salimova Dilmira Farxodovna</b>	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	41
<b>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</b>	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
<b>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</b>	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	48
<b>E. Po'latova</b>	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
<b>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</b>	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
<b>G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li</b>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	60
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	63
<b>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</b>	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	67
<b>Nomozova Dilobar Suyun qizi</b>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar .....	72
<b>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</b>	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	75
<b>Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li</b>	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature .....	80
<b>Ruzieva Maftuna</b>	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
<b>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</b>	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
<b>Sharipova Hakima Shavkatovna</b>	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	92
<b>Turayeva Nazira Ibragimovna</b>	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	95
<b>Меденцева Наталья Петровна</b>	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	100
<b>Jonibekov Jasur Jonibekovich</b>	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
<b>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</b>	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
<b>Bakayev Najmiddin</b>	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
<b>Egamova Madina Qobil qizi</b>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
<b>Egamova Shukriya Amanovna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari .....	119
<b>G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi</b>	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish .....	124
<b>G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich</b>	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	128
<b>Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
<b>Ikromova Munisa Sheraliyevna</b>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari .....	134
<b>Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna</b>	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar .....	138
<b>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	141
<b>Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna</b>	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi .....	145
<b>Kiyamova Maxbuba Sultanovna</b>	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari .....	148
<b>Mamadiyrov Jamol</b>	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
<b>Sharipova Firuza Mehriddinovna</b>	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli .....	155
<b>Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li</b>	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
<b>Xallokova Maksudaxon Ergashevna</b>	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
<b>Xatamova Ferangiz Ibodulloevna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi .....	166
<b>Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna</b>	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
<b>Yodgorova Gulrux Farhodovna</b>	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
<b>Юлдашев Эргаш Сабинович</b>	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
<b>Kudenov Temurbek Maxsetbaevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida .....	180
<b>Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna</b>	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar .....	185
<b>Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi</b>	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes.....	189
<b>Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ..... 192  <b>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</b></p> <p>Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi..... 196  <b>Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</b></p> <p>Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik ..... 201  <b>Adilova Zulfiya Djavdatovna</b></p> <p>Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni ..... 204  <b>Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</b></p> <p>The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach ..... 207  <b>Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati..... 210  <b>Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</b></p> <p>Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti ..... 214  <b>Aripova Sayida Abdulaxatovna</b></p> <p>Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi ..... 217  <b>Rasuljon Atamuratov</b></p> <p>Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi..... 221  <b>Azizova Shodiya Utkur qizi</b></p> <p>Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari ..... 224  <b>Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</b></p> <p>O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash..... 228  <b>Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</b></p> <p>Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar ..... 232  <b>Ochilova Sarvinoz Salim qizi</b></p> <p>Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari ..... 236  <b>Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</b></p> <p>Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari..... 239  <b>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi ..... 242  <b>Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</b></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli ..... 245  <b>Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</b></p> <p>Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni ..... 248  <b>Umirova Guldon Jamoliddin qizi</b></p> <p>Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari ..... 251  <b>Ungalov Akmal Navruzovich</b></p> <p>Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi ..... 254  <b>Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</b></p> <p>Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati ..... 257  <b>Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</b></p> <p>Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati..... 260  <b>Yuldasheva Mastura Islamovna</b></p> <p>Пословицы и поговорки как отражение картины мира ..... 263  <b>Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</b></p> <p>Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni ..... 268  <b>Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</b></p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar..... 272  <b>Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</b></p>
-------------------------------------	--



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
<b>Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari .....	280
<b>O'rinova Nilufar Muhammadovna</b>	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
<b>Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li</b>	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
<b>Tugalova Madina Erkin qizi</b>	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
<b>Umarova Muyassarxon A'zamjonovna</b>	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari .....	297
<b>Xanova Dilrabo</b>	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies .....	303
<b>Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna</b>	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli .....	306
<b>Ametova Guljamilya Elbrusovna</b>	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish .....	310
<b>Baydjanov Bekzod Xaitboyevich</b>	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
<b>Choriyeva Feruza Amrullayevna</b>	
Ibrayim Yusupovning "Saksovul" she'rini o'qitish metodikasi .....	317
<b>Darmenov Allayar Abdilxaq uli</b>	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
<b>Ergasheva Anbar Shaymardan qizi</b>	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar .....	324
<b>Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi</b>	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
<b>Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi</b>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish .....	334
<b>Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li</b>	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
<b>Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi</b>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini .....	346
<b>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</b>	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
<b>Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi</b>	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
<b>Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li</b>	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari .....	361
<b>Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash .....	365
<b>Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li</b>	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
<b>Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi</b>	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri .....	375
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
<b>Isoqov Nuriddin Halim o'g'li</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish .....	382
<b>Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna</b>	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности .....	386
<b>Марасулова Доно Нигматуллаевна</b>	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati .....	389
<b>Ungarbayeva Ayman Davletbayevna</b>	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi .....	393
<b>Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi</b>	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish .....	396
<b>Yulchiyeva Shoxsanam</b>	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе .....	399
<b>Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович</b>	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
<b>Р. К. Аюезова</b>	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
<b>Хайдарова Гулинур Нурбек кизи</b>	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов .....	411
<b>Чинкулова Гулмехра Бахроновна</b>	



## MA'NAVIY YETUKLIK SARI: JADID ADABIYOTINING O'RNI

Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li  
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0001-0197-8145

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishda jadid pedagogikasining o'rni va mazmuni tahlil qilingan. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiya yo'nalishida yozgan ko'plab asarlari, ularning mazmun-mohiyati, yosh avlod ongiga singdirish usullari va talabalarda ma'naviy dunyoqarashni boyitish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, vatanparvarlik, shukronalik, mehnatsevarlik, muhabbat, ezgulik, vijdon, burch, adolat, or-nomus, e'tiqod, sadoqat kabi axloqiy kategoriyalarni shakllantirish masalasi yoritilgan. Ushbu fazilatlarga ega bo'lgan yoshlar har qanday vaziyatda sog'lom fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar – ma'naviy meros, urf-odat va an'analarga nisbatan chuqur hurmat bilan yondashadi.

**Kalit so'zlar:** talabalar, ma'naviyat, axloq, kompetentlik, metod, shakl, vosita, jadid pedagogikasi.

**Abstract:** This article analyzes the role and significance of Jadid pedagogy in developing students' spiritual competence. It examines numerous works written by Jadid enlighteners in the field of education and upbringing, emphasizing their content, essence, and the ways of instilling these values in the younger generation to enrich their spiritual worldview. As a result, the article addresses the development of moral categories such as patriotism, gratitude, diligence, love, kindness, conscience, duty, justice, honor, faith, and loyalty among students. Young people who possess these qualities will be capable of rational thinking in any situation and will show respect for spiritual heritage, customs, and traditions, which are regarded as national and universal values.

**Key words:** students, spirituality, morality, competence, method, form, means, Jadid pedagogy.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы роль и содержание джадидской педагогики в процессе развития духовной компетентности студентов. Рассматривается содержание многочисленных произведений джадидских просветителей, написанных в области образования и воспитания, а также их внедрение в сознание молодого поколения с целью обогащения духовного мировоззрения. В результате акцент сделан на формирование у студентов таких нравственных качеств, как патриотизм, благодарность, трудолюбие, любовь, доброта, совесть, долг, справедливость, честь, вера и преданность. Молодёжь, обладающая вышеуказанными качествами, будет способна к здравому мышлению в различных жизненных ситуациях и будет проявлять уважение к духовному наследию, обычаям и традициям, представляющим национальные и общечеловеческие ценности.

**Ключевые слова:** студенты, духовность, нравственность, компетентность, метод, форма, средство, джадидская педагогика.

### KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida turli tahdid va xavf-xatarlar mavjudligi sir emas. Ayniqsa, ma'naviy-mafkuraviy sohalarda olib borilayotgan kurashlar borgan sari chuqurlashib, ularning jamiyat hayotiga ta'siri tobora ortib bormoqda. Shu bois, ma'naviyat masalasi bugungi kunning dolzarb va muhim mavzularidan biriga aylangan. Ma'naviyat insonni barkamollik sari yetaklovchi qudratli kuch bo'lib, u har bir fuqaroning ichki dunyosini boyitadi, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va milliy birlikni mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. Biroq bu kuchli vosita yovuz maqsadlarga yo'naltirilsa, bunday vaziyatda u nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat, millat va davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlod ongiga salbiy g'oya va mafkuralarning singdirilishi ularning kelajagiga putur yetkazadi. Shu sababli biz ma'naviyatimizni har qanday zararli g'oyalar va maqsadlardan himoya qilishimiz, ongimizda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Zero, ma'naviy bo'shliq – bu yovuz niyatlar o'z ildizini qadashga urinadigan eng zaif nuqtadir.



Zamonamizning eng kuchli kurash maydonlaridan biri aynan ma'naviy-mafkuraviy soha bo'lib qolmoqda. Bu kurashda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqning hushyorligi, ogohliligi va yuksak ma'naviy tayyorgarligi zarur omildir. Oila, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilik bu borada faol ishtirok etishi, har bir fuqaroning ma'naviy immunitetini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu borada butun jahonda ajdodlar merosi ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lgan. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda ajdodlar merosidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada elektron ta'lim muhitining yaratilganligi taraqqiyotning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning strategik va taktik maqsadlarini belgilash, asl qadriyatlar asosida shaxs ma'naviyati hamda dunyoqarashini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan dolzarb vazifaga aylangan.

Muhtaram Prezidentimizning 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>1</sup> va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida bildirgan:

"Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yoqmaydimi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir"<sup>2</sup> – degan nutqlari ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik va g'aflat asiriga aylanmay, har doim yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan.

"Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash"<sup>3</sup> – muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar o'z asarlarida xalqni uyg'otishga, adabiyot va san'at orqali yangi zamon ruhini targ'ib qilishga harakat qilganlar. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Munavvarqori Abdurashidxonovning pedagogik qarashlari bugungi o'quvchi-yoshlar uchun katta tarbiyaviy manba bo'la oladi. Bu asarlarning har birida insoniylik, halollik, mehnatsevarlik, milliy g'urur kabi umumbashariy va milliy qadriyatlar mujassam.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ana shu qadriyatlarni yetkazish, ularni anglashga undash, fikrlash doirasini kengaytirish muhim metodik vazifa sifatida qaralmoqda. Biroq bu jarayon bir qator pedagogik muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Jumladan, jadid asarlarining ba'zida arxaik tilda yozilgani, zamonaviy o'quvchilar uchun begona tuyulishi, ulardagi ma'naviy mazmuni anglashda qiynalish hollari, o'quv dasturlarida jadid adabiyotiga yetarli e'tibor berilmasligi yoki unga yondashuvning zamonaviy pedagogik metodlardan yiroqligi bu boradagi asosiy muammolar sirasiga kiradi. Shuningdek, hozirgi talabaning ma'naviy ehtiyojlari, axborot oqimlari ichida yo'naltirilmagan holda qolishi, tarixiy merosga yuzaki qarashi kabi omillar ham ularni jadid asarlaridagi chuqur ma'naviy qatlamlarni anglashdan chetlatadi.

Shu sababli bu borada samarali metodik yondashuvlar, motivatsion usullar, interaktiv va integratsiyalashgan dars ishlarni orqali yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati mavjud<sup>4</sup>.

Buyuk alloma va muhaddis Imom G'azzoliy "Ta'limul mutaallim" ("Ilm olish sirlari") kitobida talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini borasida quyidagi fikrlarni bildiradi:

"Xususan, odob ahli ilmlar, xususan, tolibi ilmlar kamtarin, kamsuqum bo'lishlari kerak. Tavo'zlikni o'zlariga kasb qilsinlar. U esa mutakabbirlik bilan xorlikning o'rtasidir. Iffatli bo'lmoq yuksak insoniy fazilatlardan sanaladi. Iffat – poklik, gunoh va ma'siyatdan forig'lik, har jihatdan pokizalik demakdir."<sup>5</sup>

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda jadidlar hayoti va ijodi qoldirgan merosini qo'llash nazariyasi va amaliyotini joriy etish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mamlakatimizda Begali Qosimov va Dolimov Ulug'bek tomonidan olib borilgan.

1 <https://lex.uz/docs/-5344692>

2 <https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uyg-un-va-hamohang>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni, 11.09.2023 yil

4 Qarshiyeva, I. . (2025). Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarni o'rgatishdagi pedagogik muammolar. // Наука и инновация, 3(15), 60–63. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/88205>

5 Ilm olish sirlari. Imom Zamrujij Movarunnahr Toshkent-2004

Jadidchilar uchun adabiyot – “oinayi millat”, ya’ni u faqat yurak zamzamasini emas, tafakkur jilosi bo’lishi lozim. U faqat hislarga emas, balki ong va sezim taraqqiyotiga ta’sir ko’rsatmog’i kerak. Buning uchun adabiyot va ijod ahli xalq dardi, orzu-umidlari bilan yashashi lozim. Ma’rifatchi bobolarimizning bu o’g’itlari bugun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikdan keyingi adabiyotimizda boshlangan yangilanish jarayoni zamonga hamohang bo’lish bilan birga, xalq taqdiri bilan hamnafas bo’lishi lozim. G’arbning mashhur asarlarini ko’r-ko’rona, rangsiz va jonsiz takrorlash emas, balki bobolarimiz ta’kidlaganidek, o’zligimizdan uzilmagan holda, muvozanat tamoyiliga asoslangan, o’rganishga arzigulik tajribalarni tanlab olish zarur<sup>6</sup>.

Mamlakatimizda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan kamol toptirish, ularni milliy tarixiy meros, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xulq va odob-axloqni shakllantirishda kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada buyuk jadidlarimiz tomonidan yozilgan ko’plab kitoblar, qo’llanmalar, maqolalar va she’rlar hozirgi kunda bebaho manba bo’lib xizmat qilmoqda.

Jadid allomalaridan Abdulla Avloniy zamonasi uchun hodisa bo’lgan “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912), “Tarix”, “Turkiy guliston va axloq” (1913) kabi darsliklarni yozgan. 1895-yillardan boshlab ijod qilgan Avloniy “Qobil”, “Shuhrat”, “Hijron”, “Avloniy”, “Surayyo”, “Abulfayz”, “Indamas” taxalluslari bilan she’r, hikoya, felyeton va kichik hajmli dramatik asarlar (1900–1917) yaratdi. Shoir o’z asarlarida qoloqlik, jaholat va bilimsizlikni qoralab, kishilarni ilmga, ma’rifatga chaqirdi. 1917-yilgacha Toshkentda “Shuhrat” va “Osiyo” kabi gazetalarni tashkil etgan.

Uning “Advokatlik osonmi?”, “Ikki muhabbat”, “To’y”, “S’ezd”, “Laylo va Majnun”, “O’liklar” kabi dramatik asarlarida jaholat, bid’at va bilimsizlikning fojeali oqibatlari, nosog’lom urf-odatlar fosh etiladi. Shoir yuzlab didaktik she’rlar yozgan bo’lib, ularda xalq didaktikasi bilan yangi zamon pedagogikasi uyg’unlashgan. Masalan, “O’z mamlakatimizda” she’rida bola tarbiyasiga pulni ayamagan, lekin maishat uchun isrof qilgan kishilar tanqid qilinadi.

Jadid pedagoglari o’z darsliklarini yangicha yondashuv asosida yaratganlar va ularni amaliyotga joriy etganlar. Mahmudxo’ja Behbudiy “usuli jadid” maktablari uchun “Muxtasari tarixi islom”, “Madxali jo’g’rofiya umroniy”, “Muxtasari jo’g’rofi rusiy”, “Amaliyoti islom” kabi darsliklarni yozgan.

Fitratning “O’quv”, “Ona tili”, “Imlo masalalari”, “O’zbek tilining sarfi”, “O’zbek tilining nahvi”, “Adabiyot qoidalari” kabi darsliklari, Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Ali Asqar ibn Bayramali Kalinning “Ta’limus soniy” kabi asarlari jadid maktablarida darslik sifatida foydalanilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov ko’rgazmali vositalardan, Behbudiy va Fitrat og’zaki va yozma nutqni rivojlantirish usullaridan, Avloniy esa ifodali o’qish texnikasi va texnik vositalardan dars jarayonida foydalangan.

Abdulla Avloniy didaktik faoliyatida ta’lim va tarbiya birligi asosiy tamoyil sifatida ko’rilgan. U oila tarbiyasining o’rnini beqiyos deb hisoblagan va bu boradagi fikrlarini hayotiy misollar bilan yoritgan. “Usuli jadid” maktablari uchun u “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (to’rt qism), “Birinch muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi muhim asarlarni yaratgan. Bu darsliklar yoshlarning milliy va ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ularni ruhan yetuk, erkin fikrlaydigan, o’zligini anglagan insonlar sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davrda mavjud tahdidlarni bartaraf etish va yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashda ajdodlar merosidan keng foydalanish zarur. Shu maqsadda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, yoshlarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda amaliy pedagogik tizimlar, texnologik yondashuvlar va jadid adabiyotning durdona asarlari bilan uyg’unlashtirilgan interfaol dasturlarni ta’lim jarayoniga joriy etish zarur.

Bugungi kunda jahon oliy ta’lim tizimida ham yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasi takomillashtirilmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talabalar tafakkurini o’stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ularni ma’naviy-axloqan yetuk qilib tarbiyalashda modulli o’qitish, “blended learning” (aralash o’qitish), mahorat darslari va vebinarlar keng qo’llanilmoqda.

Respublikamizda jadid ma’rifatparvarlari tomonidan tarbiya jarayonining turli jihatlarini chuqur o’rganilgan bo’lib, bu tadqiqotlar asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarning ayrimlari keng qamrovli ma’naviy-axloqiy tarbiyani yoritishga qaratilgan bo’lsa, boshqalari o’quv kurslarida yangi pedagogik usullarni joriy etish, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

6 Begali Qosimov. O’zbek milliy uyg’unlashuv adabiyoti & Xurshid Davron. Adabiyot – oinayi millatdur.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarda ma'naviy kompetentligini rivojlantirish jarayonida jadid resurslaridan foydalanish, shuningdek, axborot tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirishning zamonaviy tamoyillarini hisobga olgan holda milliy o'qitish tizimini yaratish zarurati ta'lim metodlarini amaliyotga tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Talaba-yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga doir turli shakl va metodlar tizimi bu boradagi metodik taraqqiyotda muhim o'rin tutadi. Bunga quyidagilar kiradi: konferensiya darslari, seminar mashg'ulotlari, munozara darslari, amaliy darslar, o'yin shaklidagi darslar, sayohat darslari, rolli darslar, tarbiyaviy tadbirlar, ekskursiyalar, davra suhbatlari, kichik guruhlarda ishlash.

Shuningdek, ma'naviy madaniyatni shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: muammoli-munozarali vaziyatlar yaratish, qiyosiy-izohli tahlil, badiiy-ma'rifiy asarlar ustida ishlash, ijodiy topshiriqlar bajarish, tushunchali tahlil, mantiqiy tahlil, timsollar asosida tahlil, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni sharhlab o'rganish, mustaqil ishlarga yo'naltirish va hokazo.

Yoshlarda ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda, avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniq belgilash, ta'lim-tarbiya mazmunini to'g'ri shakllantirish hamda natijaga erishish uchun tizimli yondashuvni yo'lga qo'yish zarur.

Jadid adabiyoti vositasida talabalarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – ularning dunyoqarashini boyitish, ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, milliy g'urur va ruhiy barkamolligini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yo'llarni aniqlashdan iboratdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, jadid adabiyotining ilmiy salohiyati talabalar dunyoqarashini boyitishda va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Jadid allomalarining asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy adolat, halollik, vatanparvarlik, bilimga intilish, tafakkur erkinligi kabi fazilatlar yoshlarni ma'naviy yetuklik sari yo'naltirishga xizmat qiladi.



Bu orqali talabalarda ma'naviy kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyati yuzaga kelganligi kuzatildi. Xususan, jadidlar faoliyati va asarlari orqali talabalar orasida tarixiy xotira, milliy g'urur va milliy o'zlikni anglash tuyg'ulari kuchaygani, ularning yangi davr yosh avlodini tarbiyalashga daxldorlik hissi bilan yondasha boshlagani aniqlangan.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida bo'lajak o'qituvchilarda jadid adabiyotining pedagogik va axloqiy yondashuvlarini o'zlashtirish orqali motivatsion, qadriyatga yo'naltirilgan va reflektiv kompetensiya elementlari shakllangani kuzatildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning ma'naviy kompetentligini jadid adabiyoti vositasida rivojlantirish jarayonida mazmun, shakl, metod va vositalarni izchil takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodda ijtimoiy munosabatlarga kirishishda zarur bo'lgan ma'naviy ong, axloqiy kategoriyalar, ijtimoiy normalar va qadriyatlar tizimi to'g'risida chuqur bilim hosil qilish, ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Bu borada, eng avvalo, millatimizning boy tarixi va chuqur ildizlarga ega ma'naviyati, ajdodlarimizning ma'rifiy merosiga asoslanish zarurdir. Aynan shu yondashuv talabalarning ongida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, o'zligini anglash, milliy g'urur va intellektual salohiyatni kuchaytirishda ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>
6. Ilm olish sirlari / Imom Zarnujiy. – Movarounnahr: Toshkent, 2004.
7. Azarov Yu. P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – 67 b.
8. Azimova N. E. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitish misolida): Ped. fan. fals. dokt. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012. – 178 b.
9. Ismoilova Z. Q. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar): Ped. fan. dokt. dis. avtoref. – Toshkent: O'zPFITI, 2006. – 46 b.
10. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 240 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhah:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.